O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“REAL IQTISODIYOT” KAFEDRASI

“Xizmatlar sohasida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning zamonaviy texnologiyalari”

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2025-yil 25-mart

I bo‘lim



SAMARQAND-2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“REAL IQTISODIYOT” KAFEDRASI

“Xizmatlar sohasida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning zamonaviy texnologiyalari”

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2025-yil 25-mart

I bo‘lim

SAMARQAND-2025

UO‘K: 338.46
X 59
KBK: 65.9(2)30

Xizmatlar sohasida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning zamonaviy texnologiyalari // xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2025-yil 25-mart. Samarqand, SamISI, 2025. – 254 bet.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi:
Z.S.Artikov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Nashr uchun mas’ullar:
D.X.Aslanova – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;
G.M.Shadiyeva – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
B.A.Abdukarimov – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;
T.S.Sharipov – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;
Sh.O.Quvandiqov – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;
Sh.A.Sultonov – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent;
R.J.Qurbonova – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
U.N.Nurmorodov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
Z.I.Abdullayeva – iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;
B.O.Do‘stmatov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
A.P.Xazratov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
L.U.Maxmudov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
Z.K.Raximov – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent v.b.;

Sahifalovchilar:
M.E.Erdonov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti
Sh.N.Mirzayeva – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti
S.B.Iskandarov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti
A.I.Asrorov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti
V.A.Fozilov – SamISI “Real iqtisodiyot” kafedrasi assistenti

TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MOBIL ILOVALAR YARATISH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Sitora Otabekovna Xamroyeva
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti magistranti
Xaydarov Safarboy Abdirashitovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada turizm sohasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo‘llari hamda bu borada turistlar va ushbu soha vakillari uchun qulayliklar yaratadigan mobil ilovalar ishlab chiqish masalalari tadbiq etilgan.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассмотрены пути эффективного использования инновационных технологий в развитии туристской отрасли, а также вопросы разработки мобильных приложений, создающих удобства для туристов и представителей данной сферы.

ANNOTATION: in the development of the tourism industry, the issues of effective use of innovative technologies and the development of mobile applications that provide facilities for tourists and representatives of this industry are discussed in this article.

KALIT SO‘ZLAR: turizm, turizm sanoati, innovatsion texnologiyalar, onlayn bronlash, masofadan zondlash, Airbnb, Booking.com, Aviasales, “Yetti pir”

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: туризм, индустрия туризма, инновационные технологии, онлайн-бронирование, дистанционное зондирование, Airbnb, Booking.com, авиасалоны, “yetti pir”

KEYWORDS: tourism, tourism industry, innovative technologies, online booking, remote sensing, Airbnb, Booking.com, Aviasales, “yetti pir”

KIRISH: Turizm sanoati bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etgan sohalardan biri hisoblanadi. Har yili minglab odamlar sayohat maqsadida mo‘maygina pul sarflashadi va bu mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shunday ekan ushbu sohani yurtimizda ham yanada rivojlantirishga alohida e’tibor qaratib bu boradagi islohatlarni yanada oshirib borishimiz zarur. Prizidentimiz bu borada yetarli chora tadbirlar tashkil etib soha vakillariga tegishli vazifalarni belgilab bermoqdalar.

2023-yil 29-mart kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan mamlakatimiz turizmini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida O‘zbekiston turizm sohasini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish zarurligi ta’kidlanib bu borada amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan ishlar bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Davlatimiz rahbari ma’ruzasida turizm sohasini rivojlantirishda yangi texnika va texnologiyalardan foydalanish, infratuzilmani rivojlantirish masalalari, tizimining hozirgi holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari hamda sohani rivojlantirish istiqbollariga to‘xtalib o‘tdi[47]

Bugungi zamon talabi bo‘lgan innovatsion texnologyalar bu borada foydalanilishi zarur bo‘lgan muhim jihatlardan biri hisoblandi. Turizm foydalanuvchilariga yaxshi tanish bo‘lib ulgurgan booking.com, aviasales kabi yurtimizda joylashtirish, transport va shunga o‘xshash boshqa turizmning ajralmas

[47] Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 29-mart kuni mamlakatimiz turizm salohiyatini oshirish masalalariga bagishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nutqidan. “Указаны дополнительные возможности для развития туризма” https://president.uz/ru/lists/view/6095

qismi bo‘lgan xizmatlarni turizm foydalanuvchilariga tez va oson tarzda online bron qilish xizmatlarini ko‘rsatib kelmoqda.

Sayohat mobil ilovalari turizm sanoatini tubdan o‘zgartirmoqda. Turizm sohasini raqamlashtirish sayyohlar uchun birqancha qulayliklar yaratmoqda ya’ni, endi sayohat qilishni xohlagan istalgan shaxs uyidaligidayoq hech qanday ovoragarchiliklarsiz mobil aloqa vositasidagi bir necha tugmalarni bosish orqali oldindan borishni rejalashtirgan shaharidagi mehmonxonalardan birida nomer bron qilishi, poyezd, samalyot yoki boshqa transport vositalariga chiptalar harid qilishi va diqqatga sazavor joylar bilan tanishib chiqishi mumkin bo‘ladi. Undan tashqari endi sayohat qilishni istagan odam uchun til bilmaslik uni sayohat qilishdan to‘xtatib qola olmaydi. Mobil aloqa vositalaridagi tarjimon qurilmalar istalgan tildan o‘z ona tilingizga tez va osonlik bilan jumlalarni tarjima qilib beradi va bu orqali turistlar qiyinchiliklarsiz o‘zga davlatda muloqot qilish imkoniga ega bo‘lmoqdalar. Ushbu mobil ilovalarning so‘gi yillarda salmog‘i qay darajada o‘sib borayotganini quyidagi statistika ma’lumotlari orqali ham yaqqol bilib olishimiz mumkin.

Ma’lumotlarga ko‘ra 2023 va 2030 yillar oralig‘ida onlayn bron qilishning taxminiy qiymati 1500 milliard dollardan oshishi ko‘zda tutilmoqda. Sayyohlik sanoati qariyb 2,29 trillion dollarni tashkil etishini hisobga olsak, onlayn bron qilish sektordagi eng katta bozor ulushlaridan birini tashkil qiladi.

- 2023-yilda reyslarni bron qilish koronavirus pandemiyasigacha bo‘lgan ko‘rsatkichning qariyb 95 foiziga yetdi.
- Onlayn sayohat bozori 2027 yilga kelib 1,2 trillion dollarga yetishi kutilmoqda.
- Dunyo bo'ylab sayohatchilarning 80% butun sayohatlarini onlayn bron qilishni afzal ko'radi.
- Barcha sayohatchilarning yarmi yo'lga chiqishdan oldin sayohat jarayonini o'rganish uchun ortiqcha ovoragarchiliklar bilan qo‘shimcha vaqt sarflamaydi.
- 2023-yilda sayohatchilarning 75 foizi ijtimoiy tarmoqdagi postlarini sayohat joylarini ilhomlantirgani uchun baholadilar.
- Sayohatchilarning 87 foizi ekologik toza sayohat variantlarini tanlash istagini bildiradi.
- 2028 yilga kelib turizm va sayohatdan tushgan daromadning 76 foizi onlayn bron qilishdan olinadi.[48]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Ushbu mavzu yuzasidan yurtimizning bir necha olimlari tadqiqodlar olib borganlar xususan N.R.Zaynalovning “Turizmda axborot texnologiyalari” o‘quv qo‘llanmasida hamda professor I.S.Tuxliyev va A.Eshtayev tomonidan tayyorlangan “Turizmda geoaxborot tizimlari” darsligida axborot texnologiyalari va uning turizmda tutgan o‘rni va milliy turizm industryasidagi axborot jarayonlari, tutizm sohasida mavjud

[48] https://www.stratosjets.com/blog/online-travel-statistics/

axborot texnologiyalarini qo‘llashda bilimlar berish bilan bir qatorda, ularda tizimli yondashuvni shakillantirishga qaratilgan bir necha fikr mulohazalar keltirilgan.[49]

Turizmni raqamlashtirish, innavatsion texnologiayalar orqali sohani yanada rivojlantirish raqamli turizmning mazmuni va rivojlanish xususiyatlari, xizmatlar iqtisodiyotining raqamlashuvida turizm sohasining bugungi holati, O`zbekistonda raqamli turizmni rivojlantirish salohiyati va hozirgi holati tahlili, raqamli turizmdagi reklamaga xos xususiyatlar haqida bir necha fikir mulohazalar Xurramov Ortikjon Kayumovichning “Raqamli turizm” [50] deb nomlangan oliy ta’lim muassasalari uchun darsligida bayon etilgan.

TAXLIL VA NATIJALAR. Agar yurtimizdagi mobil ilovalarni sanab o‘tadigan bo‘lsak bugungi kunda ularning soni kundan kun oshib bormoqda ammo, ularning barchasi ham talab darajasida sfatli emas. Turistlar uchun mobil ilovalar yaratishda asosan joylashtirish obiyektlari, transport vositalari, shahardagi diqqatga sazovor joylar, ovqatlanish maskanlarini va shunga o‘xshash turistlarni qiziqtradigan boshqa turistik obiyektlar joylashgan joyi, narxi, masofasi, chipta va biletlar narxlari va ularni online sotib olish haqida to‘liq ma’lumot berilgan bo‘ladi. Bularga: Booking.com, Aviasales, Airbnb, Discover Uzbekistan kabilar misol bo‘la oladi. Quyida yurtimizda yaratilgan shunday mobil ilovalardan yana birini misol tariqasida ko‘rib chiqamiz.

Yurtimizdagi eng mashhur turizm maskanlaridan biri bo‘lgan Buxoro viloyatidagi mashxur qadamjolardan biri bo‘lgan “Yetti pir” ziyoratgohi haqida ma’limot beruvchi mobil ilova O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix instituti tayanch doktoranti Shavkat Bobojonov tomonidan «7 PIR» mobil ilovasi yaratildi. O‘zbek, rus, ingliz va turk tillarida xizmat ko‘rsatuvchi dastur tumanlar, ziyoratgohlar, muzeylar tarixi, kutubxona hamda mehmonxonalar va boshqa xizmat ko‘rsatish turlarining ma’lumotlar bazasini o‘z ichiga olgan. Shuningdek, mobil ilovada sayyohlar uchun mehmonxonalar, ularning xizmat turlari, temir yo‘l vokzali, aeroport, turizm politsiyasi, ular bilan bog‘lanish manzillari, masjidlar, ovqatlanish, bank, dorixona, shifoxona, yoqilg‘i quyish shoxobchalarining aniq joylashuv koordinatalari ko‘rsatilgan. Ilova Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilgan. [51]

XULOSA VA TAKLIFLAR. Bugungi globallashuv jarayoni jadallashib, mamlakatlar o‘rtasidagi integratsion muhit chuqurlashib borayotgan hamda jamiyatning barcha sohalari va tarmoqlarida zamonaviy raqamli texnologiyalarning ahamiyati oshib borayotgan sharoitda hayotimizni turli raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilishimiz deyarli imkonsiz masala hisoblanadi. Hozirda turli gadjetlar, bulutli va su’niy intellekt texnologiyalari insonlarning hayot faoliyatiga jiddiy ta’sir etib kelmoqda. Aloqa, biznes, hukumat, sayohat va hatto qishloq xo‘jaligi sohalari ushbu ixtirolar ta’sirida sezirali darajada ijobiy tomonga o‘zgardi. Shu jumladan

[49] Samarqand iqtisodiyot va servis instituti N.R.Zaynalov “Turizmda axborot texnologiyalari” o‘quv qo‘llanma “Voris nashriyoti” Toshkent 2017.

[50] Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi Xurramov Ortiq Qayumovichning “raqamli iqtisodiyot” darslik “Durdona” nashriyoti Buxoro 2021.

[51] https://kun.uz/news/2021/04/27/buxorodagi-ziyoratgohlar-haqida-malumot-beruvchi-7-pir-mobil-ilova-ishga-tushirildi

bugungi kunda turizm sohasida ham yangi innovatsiyalar sababli ko‘plab yutuqlarga erishilmoqda. Innavatsion texnologiyalar orqali turistlarga sayohat davomida qulayliklar yaratish bugungi kunda soha vakillari uchun dolzarb masalalardan biri desak adashmagan bo‘lamiz. Transport, mehmonxona, ovqatlanish xizmatlari va turistik obiyektlar haqida ma’lumot beruvchi ilovalarni yanada takomillashtirish, ularga yangi yo‘nalishlar kiritish orqali ushbu xizmatlar qamrovini yanada kengaytirish bu orqali turistlarga yanada qulayliklar yaratish mumkin.

Maxsus ilovalarni ishlab chiqish va uni dastlabki vaqtda hech qanday to‘lovlarsiz tarqatish lozim. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan kelib chiqib ushbu yo‘nalish bo‘yicha quyidagi takliflarni aytib o‘tishimiz mumkin:

-Ma’lumki yurtimizda turistlar oqimi faqat bir necha yo‘nalishlar bo‘ylabgina mavjud xolos (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva). Mamlakatimizga tashrif buyurgan turistlarni boshqa yo‘nalishlar bo‘ylab ham sayohat xaritasini ishlab chiqish va uni mobil ilova orqali butun dunyo bo‘ylab reklama qilish yurtimizga bo‘lgan turistlarning oqimini yanada oshirishi mumkin. Misol uchun, turistlarga mo‘ljallangan ma’lum xarita ishlab chiqiladi va xaritada mamlakatimizning turistik yo‘nalishlari ro‘yxatga olinadi, ushbu yo‘nalishlarga qo‘shimcha ravishda Navoiy viloyati hududidagi diqqatga sazovor, turistik maskanlari ham ro‘yxatga olinadi. Navoiy viloyatida turistlarni jalb qilish bo‘yicha so‘ngi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli ko‘plab ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shuni hisobga olgan holda endilikda turistik xaritaga Navoiy viloyatini ham bemalol kiritish mumkin.

-Ma’lumotlar bazasi yaratiladi hamda muntazam kuzatib boriladigan hamda yangilab boriladigan servis tizimi ishlab chiqiladi;

-Zamonaviy masofadan zondlash tizimlari orqali avtomatik marshrutlar ishlab chiqish algoritmlari yaratiladi;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA INTERNET SAHIFALAR.

1. Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 29-mart kuni mamlakatimiz turizm salohiyatini oshirish masalalariga bagishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nutqidan. “Указаны дополнительные возможности для развития туризма” https://president.uz/ru/lists/view/6095
2. I.S.Tuxliyev, A.A.Eshtayev “Turizmda geoaxborot tizimlari”. Darslik. S.: “Ipak yo‘li” xalqaro turizm universiteti nashriyoti, 2023 y. - 306 b.
3. https://www.stratosjets.com/blog/online-travel-statistics/
4. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti N.R.Zaynalov “Turizmda axborot texnologiyalari” o‘quv qo‘llanma “Voris nashriyoti” Toshkent 2017.
5. Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi Xurramov Ortiq Qayumovichning “raqamli iqtisodiyot” darslik “Durdona” nashriyoti Buxoro 2021.

S.A.Maxmudov	**Rivojlangan mamlakatlar tajribasida onlayn savdo xizmatlarini tartibga solish va rivojlantirish mexanizmlari**	182
J.Nematov	O‘zbekistonda agrar soha mahsulotlarini qayta ishlash samaradorligini oshirish	187
А.Б.Таниев	Туристик манзараларининг иқтисодий ривожланишга таъсири ва барқарор бошқарув стратегиялари	190
A. A. Butayev	**Kambag‘allikni qisqartirishning global tajribalari**	194
A.A.Yuldashev M.O.Odilov	Ta’minot zanjirlarini boshqarishda bulutli texnologiyalardan foydalanishni afzalliklari	197
V SHO‘BA. XIZMATLAR SOHASIDA TARKIBIY O‘ZGARISHLARNI AMALGA OSHIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASHDA INVESTITSION VA INNOVATSION MASALALAR.		
G.M.Shadieva S.M.Turapov	Cybersecurity in the digital age: safeguarding Business assets	202
A.Bektemirov A.Abduraxmonov	Issues of increasing the efficiency of foreign investments in the conditions of an innovative economy	206
A. A. Butayev	O‘zbekistonda tijorat banklarining kambag‘allikni qisqartirishdagi o‘rni	211
B.O.Dusmatov N.B.Jumayeva	Innovations in customer experience: enhancing engagement and loyalty	215
B.O.Dusmatov D.N.Qodirova	Issues of digitalization of entrepreneurship based on innovative technologies	219
O.Y.Ashurova D.Sherqulov	O’zbekistonning investitsion jozibadorligi	223
A.G. Ochilova	Social and humanitarian investments of germany into uzbekistan for the last 10 years	226
S. O.Xamroyeva S.A.Xaydarov	Turizmni rivojlantirishda innovatsion mobil ilovalar yaratish va ulardan samarali foydalanish	230
А.М.Джаббаров	Савдо корхоналарида қўшилган қиймат солиғини ҳисоблашнинг долзарб масалалари	234
X.A.Ulashev	O‘zbekistonda investitsiya muhiti va unga ta’sir etuvchi omillar.	237
Ш.Н.Мирзаева А.Х.Курбонов	Конкуренция и инновации в частном предпринимательстве	241
J.T.Togayeva	Korxonalarning innovatsion rivojlanish darajasini baholashning metodologik jihatlari	244

“Xizmatlar sohasida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning zamonaviy texnologiyalari”

xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2025-yil 25-mart

“STAP-SEL” MChJ nashriyoti,
Samarqand - 2025.

ISBN: 978-9910-702-99-0

Tasdiqnona № 033337 (27.07.2022)
Nashrga ruxsat etildi: 24.03. 2025 y.
© **“STAP-SEL” MChJ** nashriyoti
Samarqand – 2025 y.

5235

25.03. 2025 y. chop etildi
Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog‘i 15.87
Buyurtma № 0011A/25. Adadi 50 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo‘limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko’chasi 60-uy.

ISBN: 978-9910-702-99-0

